



OILAVIY MUNOSABATLARDA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI KAMSITILISHINI OLDINI OLISH VA SOG'LOM TURMUSH TARZINI TADBIQ ETISH

Turdiyeva Latofat Almardonovna

Xalqaro innovatsion universiteti

“Psixologiya va jismoniy madaniyat” kafedrası o‘qituvchisi

Email: l.turdiyeva87@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15487095>

Annotatsiya

Mazkur maqolada oilaviy munosabatlar tizimi, oiladagi nizolar va ularning kelib chiqish sabablari hamda oilaviy zo‘ravonlik holatlariga oid masalalar bayon etilgan.

Shuningdek, oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar huquqlari kamsitilishini oldini olish mexanizmlari va chora-tadbirlari yuzasidan pedagogik-psixologik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy tarbiya, nizo va ajrim, oilaviy zo‘ravonlik, oilaviy muhit, huquqiy savodxonlik, milliy qadriyatlar, sog‘lom turmush tarzi, psixologik xizmat.

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы, связанные с системой семейных отношений, семейными конфликтами и их причинами, а также случаями насилия в семье.

Также даются педагогические и психологические рекомендации о механизмах и мерах по предупреждению дискриминации прав женщин в семейных отношениях.

Ключевые слова: семья, семейное воспитание, конфликты и разногласия, насилие в семье, семейная среда, правовая грамотность, национальные ценности, здоровый образ жизни, психологическая служба.

Ma‘lumki, oilaviy tarbiya bola hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, oilaning bolalarga tarbiyaviy ta‘sir doirasi ijtimoiy ta‘sir doirasi singari o‘ta kengdir. Oila bolalarni Vatanga muhabbat, ota-ona va atrofdagilarga sadoqat, mehnat va xalq boyliklariga ongli munosabat, nuqsonlarga muhosasizlik, yuksak axloqiy va ma‘naviy sifatlarni shakllantirishda, turmushga, ijtimoiy faoliyatga nisbatan psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashda kata imkoniyatlarga egadir. Biroq, keyingi yillarda oilada farzandlarimizni tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda bir qator muammolar, nuqsonlarga duch kelinmoqda. Shu boisdan oilaviy tarbiyada turmush munosabatlari har doim ham bir maromda bo‘lavermaydi. Uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajarishda er-xotin va oila a‘zolarining





burchi, ota-onaning farzandlar oldidagi majburiyati hamda farzandlarning kattalar oldidagi burchlarini ado etish jarayonida ularning fikr va qarashlaridagi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchilik va anglashilmovchilik hamda shaxslararo nizolar tarzida namoyon bo'lib, oilada turli ko'rinisdagi nizolar yuzaga kelmoqda.

Zero, oilada yoki jamiyatda tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo, har qaysi xonadondagi ma'naviy, tarbiyaviy sharoit o'zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlarga tayangan holda shakllanishi o'z samarasini beradi. Bu borada, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o'z asarlarida oila muqaddasligini, oila jamiyat ko'rki ekanligini va bu haqda har bir oila va shaxs kesimida jamiyat muqarrarligini ta'minlash har bir rahbarning kundalik qoidasiga aylanishi kerakligini ta'kidlab kelmoqdalar. Zotan, millatning ertangi kuniga dastlab oilada poydevor qo'yiladi, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi avlod shakllanadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatida inson va uning manfaatleri ustuvor ekan, ko'zlangan maqsadga erishishda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan oilaning o'rni - beqiyosdir.

Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning bir muncha qiyinlashuvining sabablaridan biri, barkamol inson tarbiyasiga qo'yilayotgan talablarning ortib borayotganligida ko'rinadi. Bu esa oilada bolaga ma'naviy-axloqiy, nafosat va mehnat tarbiyasi berishning sifati hamda samaradorligiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Oilaviy munosabatlarda mo'tadillikning buzilishi esa alal oqibat ajrimga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda er-xotin "nikoh"ning muqaddas tushuncha ekanligini, arzimagan muammolar evaziga qo'ydi-chiqdi qilish mumkin emasligini, qolaversa, sha'riy nikohda er o'z bo'yniga olgan shartlarga amal qilishi lozim ekanligini esdan chiqarmasligi kerak.

Oilaviy muhitning buzilishida ko'proq farzandlar aziyat chekadi, qiynaladi. Kelgusida ularning sog'ligi, tarbiyasi mammoli bo'lishi muqarrar ekanligini bilib turgan ota-ona, har qanday oilaviy nuqsonni farzand ko'z yoshi oldida arzimagan narsa deb bilishi lozim [2]. Ajrim - bu illat. Buning ketidan qancha-qancha insonlar (quda-andalar, qarindoshlar, do'stlar) qiyin ahvolga tushadi. Keyingi yillarda oilaviy munosabatlarni nizo va janjallar, murosasizliklar oqibatida bir qancha oilalarda zo'ravonlik, oilada ayolning kamsitilishi va unga nisbatan tazyiqlar ortib bormoqda. Natijada oilalardagi arzimagan nizolar va munosabatlar jarayonida oilaviy zo'ravonlik holatlari sodir etiladi.

Oiladagi zo'ravonlik bu er-xotin yoki boshqa yaqin munosabatdagi kishilardan birining ikkinchisiga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki moliyaviy zo'ravonlik ko'rsatishidir [1]. Odatda bu turdagi zo'ravonlik ostida bir tomon





oiladagi boshqa a'zolarining hayoti ustidan nazoratni ushlab turishga bo'lgan intilishi yotadi. Oilaviy zo'ravonlik qurboni ko'pchilik hollarda ayol kishi yoki yosh bolalar bo'ladi, ammo erkaklar hamda qariyalar orasida ham jabrlanuvchilar yo'q emas. Bu muammo o'z ko'lamiga ko'ra global muammo. U turmush darajasi va demokratizatsiya formatidan qat'i nazar, dunyoning barcha mamlakatlarida kuzatiladi. Ayollardan nafratlanuvchi erkaklarni faqat qashshoq yoki badavlat, oliy ma'lumotli yoki ma'lumoti yo'q, yevropalik yo osiyolik deb ajratib bo'lmaydi. Bundaylarning alohida bir millati yo e'tiqodi bo'lmaydi.

Oilaviy zo'ravonliklarning keng tarqalgan ayrim ko'rinishlari quyidagi hollarda, xususan, erning xotinini urishi, ruhiy kamsitish, uning nasl-nasabini, oilaviy sharoiti yoki ota-onasi yohud qarindoshlari qilgan ishlari tufayli ayblab, haqoratlashi, erning xotinini jinsiy zo'rlashi, jinsiy kamsitishi, moliyaviy jihatdan cheklash, ayolining o'qishiga yoki ishlashiga qarshilik ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oiladagi zo'ravonlik jabrlanuvchilarini asosan uning ojiz bo'lgan a'zolari, ya'ni bolalar, ayollar, qariyalar va nogironlar tashkil etadi. Oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning 57,4% ayollar, 29,7 % voyaga yetmaganlar, 6,1% qariyalar, 4,6% erkaklar va 2,6% nogironlar tashkil etmoqda. Ayrim tadqiqotlarda shaxsga nisbatan tan jarohati yetkazishdan jabrlanganlarning 60%ni ayollar va bolalar tashkil etishi aniqlangan.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning ijtimoiy holati o'rganilganida ularning 60,8% vaqtincha ishsiz, 25,6% ishchilar, 12,0% xizmatchilar, 1,6% tadbirkorlar ekanligi aniqlandi. Ta'kidlash kerakki, jabrlanuvchilar hulq-atvorining sodir etilgan jinoyatlardagi o'rni va ta'sirini o'rganish ham motivi rashk bo'lgan qilmishlarning etimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qiziqarli tomoni shundaki, ko'p hollarda oiladagi zo'ravonlikdan jabrlanganlar o'zlariga yetkazilgan zarar (hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmatini) haqida huquqni muhofaza qilish, xususan ichki ishlar organlari yoki tibbiyot muassasalariga murojaat qilishmaydi. Bu ko'pincha ayollarda kuzatiladi. Sud-tergov idoralaridan olingan ma'lumotlar o'rganilganida, ayollarga nisbatan eri tomonidan zo'ravonlik ishlatilgan taqdirda ham bu haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslikka, shunday holatlarni yashirishga yoki tibbiyot muassalariga murojaat qilgan taqdirida ham olgan tan jarohatini o'zining ehtiyotsizgi oqibatida olganligi bilan izohlashga harakat qilishadi. Buning asosiy sababi bo'lib, ayollarning oilaning buzilib ketishidan qo'rqishi yoki erining obro'sini to'kmaslikka intilishi deb izohlash mumkin.





Bugun biz fuqarolik jamiyatda yashar ekanmiz har bir insonning o'z huquq va burchlari kafolatlanishi muqarrar ekanligini bilishimiz, oilaviy munosabatlarda hech kimni kamsitilishi, taqqirlanishi mumkin emasligini anglashimiz zarur. Bu kabi noxush holatlarga yo'l qo'ymaslik, chek qo'yish, oldini olishda fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari va huquq-tartibot organlarining asosiy e'tiborli vazifalari hisoblanadi. Bu kabi holatlarni oldini olishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda profilaktika inspektorlari o'zlariga biritirilgan ma'muriy hududlarda nosog'lom turmush tarzi kechirayotgan oilalarni aniqlab ular bilan manzilli profilaktika ishlarini olib borishlari lozim bo'ladi. Xususan, ma'muriy hududlarda yashovchi oilalar haqida tezkor vaziyatdan xabardor bo'lish, sodir etilishi mumkin bo'lgan nizolarni barvaqt profilaktikasini ta'minlash, notinch oilalardagi ijtimoiy ruhiy-muhitni sog'lomlashtirish hamda kam ta'minlangan oilalarni aniqlab ularni moddiy qo'llab ahvolini yaxshilash borasidagi ishlarni amalga oshirishlari talab etiladi [3]. Shuningdek, mahalla va huquq tartibot xodimlari tomonidan ma'muriy hududda sodir etilgan oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar va ularga imkon berayotgan sabab va sharoitlarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish va kelgusida ushbu turdagi huquqbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi, xotin-qizlar masalasi bo'yicha mutaxassis bilan hamkorlikda ertalabki yo'riqnomalarda oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan va giyohvandlik kasalligiga muhtalo bo'lgan shaxslarni aniqlab, zarur hollarda ularni belgilangan tartibda sog'lom turmush tarziga qaytarish choralarini amalga oishish zarur.

Oilaviy zo'ravonlikka barham berish qiyinligining sabablarini mushohada qilganda, mentalitetga xos xususiyatlarni e'tibordan qochirmaslik lozim. O'zbek oilalarida shaxsiy hayot, oilaviy sir – muqaddas va xalqimiz bu ma'noda ancha konservativ hisoblanadi, ya'ni ko'pchilik holatlarda oiladagi zo'ravonlik oiladan tashqariga chiqmaydi [4]. Albatta yurtimizni yanada ravnoq topishini istagan har bir shaxs, fuqaro o'z aziz vatanimizni turli xil illat va xatarlardan himoya qilishda eng avvalo o'z oilamiz qadri va qo'ni qo'shnilar bilan bo'lgan voqea va hodisalardan xabardor bo'lishimiz kerakligini, ularga ham huquqiy maslahat berishni bilmagan taqdirda, bu holatda darhol ichki ishlar idoralariga xabar berish vazifamiz ekanligini unutmasligimiz kerak. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar huquqlari kamsitilishini oldini olish va sog'lom turmush tarzini tadbir etish masalasiga e'tibor berar ekanmiz, bugungi





jamiyatimizda har bir fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlanganligini yodda tutishimiz zarur. Shunday ekan, yurtimizda qonunga muvofiq xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida huquqiy kafolatlari hamda ularga chek qo'yishning umumiy chora-tadbirlari belgilab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Список литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida 2019 yil 2 sentabr, O'RQ-561-sonli Qonuni.
2. Inomova M. "Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasi". -Toshkent, 1999. - 138 bet.
3. Nishanova Z.T., Alimbayeva Sh.T. Psixologik xizmat. Darslik. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2014.-423 b.
4. Ubaydullaeva R.A. Mustaqil O'zbekiston: ayol, oila va jamiyat. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, FAN nashriyoti, 2006.

